Taraqqiyot spektri
ILMIY JURNALI
Vol 2 № 5 2026

SAMARQAND VILOYATIDA AMAL QILGAN SOLIQ TURLARI VA SOLIQ TIZIMIGA OID MA’MURIY TIZIMINING SHAKLLANISHI

Xolmurodov Abdimalik Ali o'g'li

Aniq va ijtimoiy fanlar unversteti Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turi bo‘yicha) yo’nalishi 2-kurs magistranti

abdimalikx0399@gmail.com

J.G'.Inoyatov

Ilmiy rahbar: t.f.f.d

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyatida Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida amal qilgan soliq turlari hamda soliq tizimiga oid ma’muriy boshqaruv tizimining shakllanish jarayoni tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mustamlaka ma’muriyati dastlab Buxoro amirligi davrida mavjud bo‘lgan xiroj, tanobona, zakot va boshqa yig‘imlarni saqlab qolgan holda, keyinchalik ularni imperiya manfaatlariga mos ravishda takomillashtirib borgan. Shu bilan birga, Davlat Nazorat palatasi, Davlat Xazina palatasi, statistik hisobot tizimi hamda nazorat komissiyalarining tashkil etilishi soliq boshqaruvining markazlashuviga xizmat qilgan. Soliq va yig‘imlar tizimi orqali imperiya ma’muriyati davlat budjetini shakllantirish, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini moliyalashtirish hamda mustamlakachilik siyosatini iqtisodiy jihatdan ta’minlashga erishgan.

Kalit so‘zlar: Samarqand viloyati, Rossiya imperiyasi, soliq tizimi, xiroj, tanobona, zakot, Davlat Xazina palatasi, ma’muriy boshqaruv, statistik hisobotlar, nazorat komissiyalari, mustamlakachilik siyosati.

FORMATION OF THE ADMINISTRATIVE TAX MANAGEMENT SYSTEM AND TYPES OF TAXES APPLIED IN SAMARKAND REGION

Abstract: This article analyzes the process of formation of the administrative tax management system and the types of taxes applied in the Samarkand Region during the rule of the Russian Empire. The results of the study show that the colonial administration initially preserved the taxes and duties that had existed during the Bukhara Emirate, including kharaj, tanabona, zakat, and other levies, and later adapted them in accordance with the interests of the empire. At the same time, the establishment of the State Control Chamber, the State Treasury Chamber, the statistical reporting system, and supervisory commissions contributed to the centralization of tax administration. Through the system of taxes and duties, the imperial administration succeeded in forming the state budget, financing local administrative institutions, and providing economic support for its colonial policy.

Keywords: Samarkand Region, Russian Empire, tax system, kharaj, tanabona, zakat, State Treasury Chamber, administrative administration, statistical reports, supervisory commissions, colonial policy.

ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМЫ АДМИНИСТРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ И ВИДЫ НАЛОГОВ, ДЕЙСТВОВАВШИЕ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация: В данной статье проанализирован процесс формирования системы административного управления налогообложением и виды налогов, действовавшие в Самаркандской области в период господства Российской империи. Результаты исследования показали, что колониальная администрация первоначально сохранила существовавшие в период Бухарского эмирата налоги и сборы, такие как харадж, танабона, закят и другие платежи, а впоследствии совершенствовала их в

соответствии с интересами империи. Вместе с тем создание Государственной контрольной палаты, Государственной казённой палаты, системы статистической отчётности и контрольных комиссий способствовало централизации налогового управления. Посредством налогов и сборов имперская администрация обеспечивала формирование государственного бюджета, финансирование деятельности местных органов управления и экономическое обеспечение колониальной политики.

Ключевые слова: Самаркандская область Российская империя, налоговая система, харадж, танабона, закят, Государственная казённая палата, административное управление, статистическая отчётность, контрольные комиссии, колониальная политика.

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasida olib borgan mustamlakachilik siyosati iqtisodiy va moliyaviy boshqaruv tizimida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Samarqand viloyatida joriy etilgan soliq siyosati imperiyaning fiskal manfaatlarini ta’minlash bilan birga mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Mazkur masala ayrim tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, Samarqand viloyatida amal qilgan soliq turlari hamda ularni boshqaruvchi ma’muriy tizim faoliyati kompleks tarzda tahlil etilishi dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Rossiya imperiyasi tomonidan Samarqand viloyatida joriy etilgan soliq siyosati va uni boshqarish tizimi hududning iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Soliqlar va yig‘imlarning hisoblanishi, undirilishi hamda nazorat qilinishi uchun maxsus ma’muriy organlarning tashkil etilishi imperiya boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblangan. Mazkur jarayonlarni tarixiy manbalar asosida tadqiq etish mustamlakachilik davrida Samarqand viloyatida shakllangan iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarini yoritish, soliq tizimining rivojlanish bosqichlarini aniqlash hamda uning mahalliy aholi hayotiga ta’sirini baholash imkonini beradi. Shu sababli ushbu mavzu tarix fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Maqolaning asosiy maqsadi

Samarqand viloyatida amal qilgan soliq turlarini, ularning undirilish tartibini hamda soliq tizimiga oid ma’muriy boshqaruv organlarining shakllanish va faoliyat yuritish jarayonini tarixiy manbalar asosida tahlil qilishdan iborat.

Maqolada Samarqand viloyatida amal qilgan soliq turlari tizimlashtirildi, soliq boshqaruvining ma’muriy mexanizmlari tahlil qilindi hamda arxiv hujjatlari asosida ayrim statistik ma’lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Samarqand viloyatida amal qilgan soliq turlari hamda soliq tizimiga oid ma’muriy boshqaruv tizimining shakllanishini o‘rganishda XIX asrning ikkinchi yarmiga oid arxiv hujjatlari, statistik hisobotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy tadqiqotlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Samarqand viloyatini boshqarish bo‘yicha ishlab chiqilgan “Muvaqqat qoidalar”, mahkama hujjatlari, Davlat Nazorat palatasi va Davlat Xazina palatasi faoliyatiga oid materiallar hamda okrug statistika bo‘limining yillik hisobotlari asosiy manba sifatida tahlil qilindi[1].

Tadqiqot davomida tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish va statistik ma’lumotlarni o‘rganish usullaridan foydalanildi. Manbalardagi ma’lumotlarni o‘zaro taqqoslash natijasida Rossiya imperiyasi ma’muriyatining soliq siyosati, soliqlarni hisoblash va yig‘ish tartibi hamda bu tizimni boshqaruvchi ma’muriy organlarning shakllanish bosqichlari aniqlandi[2]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Samarqand viloyati tashkil etilgan dastlabki yillarda Rossiya imperiyasi ma’muriyati Buxoro amirligi davrida amal qilgan xiroj, tanobona, zakot hamda qamish puli, somon puli, cho‘p puli kabi turli yig‘imlarni saqlab qolgan. hududni boshqarishga oid “Muvaqqat nizomlar”ning katta qismi soliqlar, yig‘imlar, majburiyatlar va daromadlarning kirim-chiqim masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, bu holat imperiya

[1] Axmedov T. Zarafshon muzofoti boshlig‘i mahkamasi ish yuritish hujjatlari tarixiy manba sifatida. T.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2021. – B. 108–109.

[2] O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA), I-5-fond, 1-ro‘yxat, 11-yig‘ma jild, – B. 33–38.

ma’muriyati uchun moliyaviy boshqaruv masalalari muhim ahamiyat kasb etganligini ko‘rsatadi.

Soliqlarni yig‘ish va nazorat qilish maqsadida dastlab mahalliy sarkorlar xizmatidan foydalanilgan hamda ular tomonidan yig‘ilgan xiroj va tanobona miqdoriga qarab mukofotlar belgilangan. 1868–1890 yillarda soliqlarni hisoblash va yig‘ish amirlik davridagi tartib asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqot davomida hududda amal qilgan asosiy soliq turlari ham o‘rganildi. Xiroj eng muhim yer solig‘i bo‘lib, ayrim hududlarda hosilning uchdan bir, beshdan bir yoki o‘ndan bir qismi miqdorida undirilgan. Soliq bug‘doy, arpa, tariq, no‘xot, zig‘ir, tamaki, paxta, sholi, kunjut, mosh va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan to‘langan. Tanobona asosan bog‘ va ekin maydonlaridan pul shaklida undirilgan. Zakot esa savdo karvonlari, bozorlar, chorva mollari va hunarmandlardan yig‘ilgan. Amirlik davrida asosiy soliqlar xiroj, zakot va tanobdan iborat bo‘lgan. Xiroj hosilning 1/8 qismidan 1/5 qismigacha miqdorda natura shaklida undirilgan[3].

1873-yilda general-adyutant K.P. Kaufman Xiva yurishi davrida siyosiy vaziyatni hisobga olib, xiroj miqdorini hosilning 1/10 qismigacha kamaytirgan.1871-yildan boshlab rus amaldorlari rahbarligida soliqlarni hisoblash uchun maxsus komissiyalar tashkil etilib, ular ekin maydonlarini o‘lchash, hosildorlik darajasi hamda mahsulotlarning o‘rtacha narxini aniqlash bilan shug‘ullangan[4]. Zarafshon okrugi bo‘yicha 1869-yilgi hisobotlarda bozor zakotidan olingan 668 rubl mablag‘ yuzasidan statistik ma’lumotlarning yetarli emasligi qayd etilgan. Bundan tashqari, hammomlar, bozorlarda sotilgan o‘tin va ko‘mir, chorva ozuqalari hamda ayrim savdo faoliyati turlaridan ham turli yig‘imlar undirilgan.

[3] V.V. Radlov. Srednyaya Zarafshanskaya dolina. SPb., 1880. – B. 92;

[4] Nalogi i poshliny. Otchet po revizii Turkestanskogo kraya. SPb., 1910. S.50; O‘zMA, I-5-fond, 1-ro‘yxat, 11-yig‘majild, – B. 33–38

[4] Nalogi i poshliny. Otchet po revizii Turkestanskogo kraya. SPb., 1910. S.50; O‘zMA, I-5-fond, 1-ro‘yxat, 11-yig‘majild, – B. 33–38

Tahlillar natijasida 1876 yildan boshlab xiroj tizimining ayrim hududlarda yer solig‘i bilan almashtirilganligi, biroq sug‘orilmaydigan yerlarda eski tartib saqlab qolinganligi aniqlandi. 1880-yillarga kelib esa davlat soliqlari, davlat yig‘imlari, jamoat yig‘imlari va xalq ta’limi uchun yig‘imlar kabi yangi to‘lov turlari shakllangan.

Viloyat statistika bo‘limi ma’lumotlariga ko‘ra, 1880 yilda yer solig‘idan 153717 rubl 97 tanga, zemstvo to‘lovlaridan 27881 rubl 25 tanga va savdo guvohnomalaridan 7246 rubl 50 tanga mablag‘ yig‘ilgan. 1882 yilda Viloyat aholisi tomonidan yer solig‘i va boshqa to‘lovlar hisobiga jami 932778 rubl to‘langan.

Mazkur manbalar va statistik ma’lumotlar asosida Samarqand viloyatida Rossiya imperiyasi davrida shakllangan soliq tizimi, uning ma’muriy boshqaruv mexanizmlari hamda mahalliy aholi hayotiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari Samarqand viloyatida shakllantirilgan soliq tizimi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik manfaatlariga xizmat qilganligini ko‘rsatadi. Soliq yig‘imlari orqali hududdan olinadigan daromadlar markaziy byudjet manfaatlari yo‘lida safarbar etilgan hamda ma’muriy nazorat mexanizmlari kuchaytirilgan. Hududda xiroj, tanobona, zakot va boshqa yig‘imlar saqlab qolingan bo‘lsa-da, ularning undirilishi imperiya ma’muriyati nazoratiga o‘tkazildi. Bu holat an’anaviy soliqqa tortish tizimining mazmunan o‘zgarishiga olib kelib, mahalliy aholining iqtisodiy yukini oshirdi. Arxiv hujjatlari va statistik ma’lumotlar Samarqand viloyatida soliq boshqaruvi bosqichma-bosqich markazlashtirilganini ko‘rsatadi. Davlat Xazina palatasi va viloyat ma’muriy organlari faoliyati natijasida fiskal nazorat kuchaygan hamda soliq tushumlarini muntazam yig‘ish imkoniyati yaratilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyatida Rossiya imperiyasi davrida shakllangan soliq tizimi va ma’muriy boshqaruv mexanizmlari hududning moliyaviy va ijtimoiy-

iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, dastlabki bosqichlarda Buxoro amirligi davridan meros bo‘lib qolgan xiroj, tanobona, zakot hamda qamish puli, somon puli va cho‘p puli kabi turli yig‘imlar saqlab qolingan bo‘lib, ular okrug daromadlarining asosiy qismini tashkil etgan. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, soliqlarni yig‘ish tizimi dastlab mahalliy sarkorlar ishtirokida amalga oshirilgan bo‘lib, keyinchalik rus ma’muriyati tomonidan nazorat komissiyalari va markazlashgan moliyaviy boshqaruv tizimi joriy etilgan. 1868–1869 yillarda Davlat Nazorat palatasi va Davlat Xazina palatasining tashkil etilishi soliq tushumlarini nazorat qilish va davlat budjetiga yo‘naltirish tizimini yanada mustahkamlagan. Tanobona esa bog‘ va ekin maydonlaridan pul shaklida, zakot esa savdo karvonlari, bozorlar, chorva mollari va hunarmandchilik faoliyatidan undirilgan. Shuningdek, 1876 yildan boshlab soliq tizimida ayrim o‘zgarishlar amalga oshirilib, xiroj tizimi yer solig‘i bilan almashtirilgan, biroq sug‘orilmaydigan yerlarda eski tartib saqlanib qolgan.[5] Bu esa imperiya ma’muriyatining hududda markazlashgan soliq siyosatini kuchaytirganini va soliq yukining ortib borganini tasdiqlaydi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, Samarqand viloyatida Rossiya imperiyasi davrida shakllangan soliq tizimi va ma’muriy boshqaruv mexanizmlari bir tomondan davlat moliyaviy tizimini mustahkamlashga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan mahalliy aholining iqtisodiy ahvoliga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedov T. Zarafshon muzofoti boshlig‘i mahkamasi ish yuritish hujjatlari tarixiy manba sifatida. T.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2021. – B. 108–109.

2. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA), I-5-fond, 1-ro‘yxat, 11-yig‘ma jild, – B. 33–38.

3. Oblomurodov N., Tolipov F. O‘zbekistonda soliqlar tarixi. – Toshkent, 2009. – B. 101.

[5] V.V. Radlov. Srednyaya Zarafshanskaya dolina. SPb., 1880. -B.82;

4. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA), I-22-fond, 1-ro‘yxat, 3-yig‘ma jild, – B. 10.

5. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA), I-22-fond, 1-ro‘yxat, 269-yig‘ma jild, – B. 63.

6. “Налоги и пошлины”. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению Сенатором Гофмейстером графом К. К. Паленым. – Sankt-Peterburg, 1910. – S. 50.

7. Хорошхина, А. П. Сборник статей, касающихся Туркестанского края. – Sankt-Peterburg, 1876. – S. 165.

8. Радлов, В. В. Средняя Зарафшанская долина. – ZIRGO po otdeleniyu etnografii. – Sankt-Peterburg, 1880. – Tom VI. – B. 92.

9. Арандаренко, Г. А. Досуги в Туркестане 1874–1889. – Sankt-Peterburg, 1889. – B. 368.

10. Гирс, Ф. К. Отчет ревизующего по Высочайшему повелению Туркестанский край. – Sankt-Peterburg, 1884. – B. 87.

11. V.V. Radlov. Srednyaya Zarafshanskaya dolina. SPb., 1880. – B.92;

12. Nalogi i poshliny. Otchet po revizii Turkestanskogo kraya. SPb., 1910. S.50; O‘zMA, I-5-fond, 1-ro‘yxat, 11-yig‘majild, – B. 33–38